TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr | 327-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 20 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi 937-sonli qonunni ijrosini viloyat hududida ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 819-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi 937-sonli qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli farmoniga asosan, belgilangan vazifalar ijrosini yzasidan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 20 noyabrdagi 819-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlashda Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan, qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 20 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi 937-sonli qonunni ijrosini viloyat hududida ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 819-10-0-Q/24-sonli ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (Sh.Xashimov), sektor rahbarlariga**:**

tasdiqlangan reja - jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlariga jalb etilgan mas’ul xodimlarni ko‘chmas mulk obyektlariga kirish uchun

sharoit yaratish, o‘lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, ularning xavfsizligini ta’minlash;

fuqarolar tomonidan o‘lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergan holda xatlovga jalb etilgan mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatish;

egasi aniqlanmagan ko‘chmas mulk obyektlarining egalariga oid ma’lumotlarga aniqlik kiritishga ko‘maklashish;

mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko‘cha, mahalla faollarini jalb etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda,

uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga qonunning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot - tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov, Kadastr agentligi tuman filiali (O.Xoldorov) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja - jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda hokimlik soati, apparat yig‘ilishlariga axborot kiritib borsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov, tashkiliy - kadrlar guruhi (S.Rashidov) har chorak yakuni bilan xatlov ishlariga mas’uliyatsizlik bilan yondoshgan rahbar - xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash yuzasidan taklif kiritib borsin.

5. Tuman hokimining matbuot kotibi - axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi D.Ismailova tumandagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali tasdiqlangan reja - jadval asosida mahalla fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladigan xatlov jarayonlarini olib borilishini muntazam ravishda, haftada bir martadan kam bo‘lmagan davriylikda yoritib borishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**